



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

61010200 – Sport faoliyati (taekvondo WTF)
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

61010200 – Sport faoliyati (taekvondo WTF)

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: XASANOV OTABEK XAMIDJONOVICH

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent



A'zo: RAVSHANOV BEXRUZ XASANOVICH

Buxoro davlat texnika universiteti

falsafa doktori (PhD), dotsent

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260035
Xulosa raqami	1122
Xulosa sanasi	29.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy. Guvohnoma: MAS № 0000260, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sport faoliyati (taekvondo WTF)
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	61010200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000260, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	61010200 – Sport faoliyati (taekvondo WTF)
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	61010200 – Sports Activity: Taekwondo WTF
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	61010200 – Спортивная деятельность (тхэквондо WTF)
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Murabbiy, jismoniy tarbiya o'qituvchisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	60 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 42-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida taqdim etilgan tashkiliy-huquqiy hujjatlar, strategik rivojlantirish materiallari hamda ichki sifatni ta'minlash tizimiga oid ma'lumotlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini boshqarish va sifatni ta'minlashning asosiy elementlari shakllantirilgani aniqlandi. Xususan, istiqbolli rivojlantirish rejalari, ichki sifat siyosati, ta'lim dasturini muntazam monitoring qilish, manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini inobatga olish hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni baholash va ularni kamaytirishga qaratilgan muqobil choralar tizimli ravishda yo'lga qo'yilgani qayd etildi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilmalarning vakolat va mas'uliyat doiralari aniq belgilangan bo'lib, boshqaruv jarayonlari amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etilgan. Xavflarni tahlil qilish va ularni boshqarish mexanizmlarining alohida joriy etilgani ta'lim dasturini barqaror rivojlantirish hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etildi. O'tkazilgan tahlillar tashkiliy-boshqaruv va ichki sifatni ta'minlash tizimi ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur darajada shakllantirilganini ko'rsatdi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida 61010200 – "Taekvondo (WTF)" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha taqdim etilgan ta'lim dasturi, o'quv reja, fan dasturlari, kompetensiyalar, kutilayotgan o'quv natijalari hamda baholash mezonlari kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va bitiruvchida shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan holda ishlab chiqilgani aniqlandi. Ta'lim dasturi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilgan bo'lib, uning mazmuni kasbiy faoliyat uchun zarur nazariy bilim va

amaliy ko'nikmalarni qamrab oladi. Taekvondo (WTF) yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, xalqaro musobaqa qoidalari, zamonaviy murabbiylik metodikasi hamda sportchilarni tayyorlashning ilg'or yondashuvlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida qayd etildi. O'tkazilgan tahlillar ta'lim dasturi mazmunining belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga muvofiq shakllantirilganini ko'rsatdi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida 61010200 – "Taekvondo (WTF)" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv rejalari, fan va modul dasturlari, baholash tizimi, amaliyot bazalari, manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik hamda akademik halollikni ta'minlashga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida o'quv jarayoni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va ta'lim standartlari talablari asosida tashkil etilgani, fanlar mazmuni hamda o'quv modullari ta'lim dasturining maqsad va kutilayotgan natijalariga mos ravishda shakllantirilgani aniqlandi. Amaliyot bazalari bilan hamkorlikning tegishli hujjatlar asosida yo'lga qo'yilgani talabalarining kasbiy amaliyotini samarali tashkil etish uchun muhim asos yaratishi qayd etildi. Taekvondo (WTF) yo'nalishining amaliy xususiyatidan kelib chiqib, sport mashg'ulotlari, hakamlik amaliyoti va musobaqa faoliyatiga oid mashg'ulotlarning o'quv jarayonidagi ulushi bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi e'tirof etildi. Ta'lim natijalarini baholash mezonlarining shaffofligi hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etilishi ta'lim sifatini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida qayd etildi. O'tkazilgan tahlillar o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mos ravishda yo'lga qo'yilganini ko'rsatdi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida talabalarni qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash, o'qishdan chetlashtirish hamda talabalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimiga oid hujjatlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida mazkur jarayonlarni tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlar amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ishlab chiqilgani va amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Talabalarni qabul qilishdan boshlab ularning akademik harakati bilan bog'liq barcha bosqichlar belgilangan tartiblar asosida amalga oshirilishi, qabul qilingan qarorlar yuzasidan apellyatsiya qilish imkoniyatlari

yaratilgani qayd etildi. O'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish jarayonlari bo'yicha aniq tartiblarning mavjudligi talabalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida baholandi. Shuningdek, talabalarni akademik, ijtimoiy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qilishi e'tirof etildi. O'tkazilgan tahlillar talabalar faoliyatini tashkil etish tizimi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga muvofiq shakllantirilganini ko'rsatdi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida 61010200 – "Taekvondo (WTF)" bakalavriat ta'lim yo'nalishini inson resurslari bilan ta'minlashga oid hujjatlar, professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlar ehtiyojini tahlil qilish materiallari hamda 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlantirish rejasi kompleks o'rganildi. Tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgani, kadrlar salohiyatini rivojlantirish va istiqboldagi ehtiyojni qoplash bo'yicha tizimli yondashuv mavjudligi aniqlandi. Inson resurslarini rivojlantirish masalasining 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli reja bilan uzviy bog'langan holda rejalashtirilgani ta'lim dasturining barqaror faoliyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida qayd etildi. Shu bilan birga, taekvondo (WTF) yo'nalishining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, professor-o'qituvchilarning xalqaro murabbiylik va hakamlik sertifikatlariga ega bo'lishi, ularning xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorligini kengaytirish hamda malakasini muntazam oshirib borish ta'lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi ta'kidlandi. Mavjud inson resurslari salohiyati ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida 61010200 – "Taekvondo (WTF)" bakalavriat ta'lim yo'nalishining moddiy-texnik bazasi, o'quv infratuzilmasi hamda sport inshootlariga oid hujjatlar va mavjud sharoitlar kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur asosiy infratuzilma shakllantirilgani, universitetning o'quv binolari va sport obyektlari talabalar kontingentiga mos hajm hamda sig'imga egaligi aniqlandi. Ta'lim jarayonini uzluksiz tashkil etish uchun zarur o'quv auditoriyalari, sport zallari va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladigan maxsus maydonlar ajratilgan bo'lib, ular muntazam foydalanilayotgani qayd etildi. Taekvondo (WTF) yo'nalishining amaliy xususiyatlarini hisobga olib, standart doyang maydoni, himoya

anjomlari, elektron baholash va hisob tizimlari sportchilarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashda muhim o'rin tutishi ta'kidlandi. Shu bilan birga, mazkur sport jihozlari va texnik vositalarni bosqichma-bosqich yangilab borish hamda ularning zamonaviy namunalarini joriy etish ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilishi qayd etildi. Mavjud moddiy-texnik baza va infratuzilma ta'lim dasturini samarali amalga oshirish uchun yetarli darajada shakllantirilgan.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Doyang maydoni, himoya vositalari va elektron hisob tizimlari bazasini yangilab borish tavsiya etiladi.
- ✓ Taekvondo federatsiyasi bilan amaliyot hamkorligini kengaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish va o'quv-metodik ta'minotni yangilash.
- ✓ Doyang maydoni, himoya vositalari va elektron hisob tizimlarini yangilab borish.
- ✓ Taekvondo federatsiyasi va sport maktablari bilan hamkorlikni rivojlantirish.
- ✓ 2026–2030 istiqbolli reja doirasida kadrlar salohiyatini izchil oshirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, 61010200 – "Sport faoliyati (taekvondo WTF)" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim dasturini boshqarish va sifatni ta'minlash tizimi istiqbolli rejalashtirish, ichki sifat siyosati, monitoring hamda xavflarni boshqarish mexanizmlari asosida tashkil etilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va bitiruvchida shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ularning mazmuni Davlat ta'lim standartlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar

talablariga mos shakllantirilgan. O'quv jarayoni, amaliyot bazalari bilan hamkorlik, ta'lim natijalarini baholash va akademik halollikni ta'minlash tizimi belgilangan tartiblar asosida yo'lga qo'yilgan. Talabalarni qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash, o'qishdan chetlashtirish hamda ularni qo'llab-quvvatlash jarayonlari amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etilgan. Inson resurslari ta'lim dasturining ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirilgan bo'lib, kadrlar salohiyatini rivojlantirish 2026–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli reja bilan uzviy bog'langan. Universitetda ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur o'quv binolari, sport zallari, mashg'ulot maydonlari va boshqa moddiy-texnik resurslar mavjud bo'lib, ular sport yo'nalishining amaliy xususiyatlariga mos keladi. Aniqlangan ayrim jihatlar tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, ta'lim dasturining sifatli amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga javob beradi va MUVOFIQ deb baholanadi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

